

## MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDA TARIXIY XOTIRA VA ONGNING O‘ZARO UYG‘UNLIGI

*Ruziyev Anvar Jumanazarovich*

*Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences*

*Associate professor Social Sciences of the Department*

*Jizzakh Polytechnic Institute (Uzbekistan)*

**Annotatsiya.** Millat o‘z tarixida boshdan kechirgan voqea-hodisalarni, ijobiy va salbiy tomonlarni tahlil qilar ekan, bu voqealar nima sababdan yuz bergani va kelajakda ularning takrorlanmasligi va erishilgan yutuqlarni saqlab qolish, rivojlantirish uchun nima qilish keraqligini anglab yetadi.

Maqolada milliy o‘zlikni anglashda tarixiy xotira va ongning o‘zaro uyg‘unligi masalalari, tarixiy ong va xotira hamda dunyoqarash borasida bir qator ijtimoiy fanlar doirasida tadqiqotlar borasida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** milliy o‘zlik, ong, tafakkur, tarixiy ong, xotira, mustaqillik, o‘tmish va bugun, vorisiylik.

«Xotira – atrof muhitdagi voqelikni bevosita va bilvosita, ixtiyorsiz va ixtiyoriy ravishda, passiv va aktiv holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va mexanik yo‘l bilan aks ettiruvchi esda olib qolish, esga tushirish, unutish hamda tanish, eslashdan iborat ruhiy jarayon, alohida va umumiylik namoyon qiluvchi ijtimoiy hodisa, barcha ta’sirlarni ijodiy qayta ishlashga yo‘naltirilgan mnemik (eslab qolish, esda saqlash) xotira, faoliyatdir»[1:12].

Respublikamizning mustaqillikka erishishi bilan esa milliy tarixiy ong va xotiramiz rivojida mutlaqo yangi davr boshlandi, deyishimiz mumkin. Albatta, milliy tarixiy xotiradagi qatlamlarni davriylashtirish shartli harakterga ega. Negaki, birinchidan, har bir xalqda u o‘ziga xos tasniflanishi va xronologik nuqtai nazardan turli davrlarni qamrab olishi mumkin. Ikkinchidan, o‘z milliy tarixiy xotiramizga tadbiquan olinganda ham, har bir qatlam doirasida bir-biridan sifatiy farqlanuvchi davrlarni ajratsa bo‘ladi. Shunday ekan, milliy tarixiy xotirada turli qatlamlarni ajratish uning rivojiga xos bo‘lgan xususiyatlarni tahlil qilish uchun qulaylik yaratishini qayd etish lozim.

Ong va xotira murakkab strukturaviy hodisa bo‘lib, uning bir nechta asosiy elementlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Mazkur elementlar ijtimoiy-tarixiy haqiqatni anglash usullari, shakllari, mezonlari, muayyan ijtimoiy-tarixiy davr va silivizatsiyalarga bo‘lgan munosabatiga ko‘ra o‘zaro farq qiladi. Ammo, ilmiy doirada umume’tirof etilgan taomilga binoan, tarixiy ongni kundalik hamda nazariy darajada ko‘rib chiqish mumkin. Ongning ushbu sohalarida o‘zaro aloqadorlikda ijtimoiy-tarixiy voqe‘likni turli daraja va sathlarda aks ettirish imkonini beradi.

Inson o‘z tarixiy xotirasiga ega bo‘lmasdan turib, hayotining turli sohalarida yuz berayotgan o‘zgarishlarning asl mohiyatini anglab yeta olmaydi, o‘z navbatida kelajagini ham tasavvur qilishi mushkul. Shu sababdan ham, mamlakatimizning

birinchi prezidenti I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz – kelajak yo‘q» iborasi ayni haqiqatdir.

Zero, hozirgi inson ongi va qalbi uchun kurash ketayotgan bir paytda, voqe‘likdagi bo‘layotgan jarayonlarni tahlil etish, kerak bo‘lsa anglash, unga munosabat bildirish uchun nafat ilmiy bilimlar balki, tarixiy bilim va tajriba suyanishni taqozo etadi.

«Tarixiy ong» atamasi so‘nggi yillarda ma‘lum sohadagi tadqiqotlarning asosiy mavzusi bo‘lib kelmoqda. O‘zbekistonlik tadqiqotchi M.N.Melikova «O‘zbekiston yoshlarining tarixiy ongi (ijtimoiy falsafiy tahlil)» mavzusida tadqiqot olib borgan. Mazkur tadqiqotda tarixiy ong atamasi G‘arb va Sharqdagi falsafiy qarashlar doirasida tahlil qilingan. Alohida ta‘kidlash kerakki, bu borada G‘arbda bir qancha modellar ishlab chiqilgan va ular ba‘zida bir-birlarini inkor etishsa-da, ayrim hollarda esa taqozo etadilar.

Sharq olimlari tomonidan tarixiy ong va xotira jamiyatning taraqqiyotini kafolatlovchi omil sifatida qaraydilar, shu bilan birga tarixiy ong va xotirani yanada rivojlantirish uchun bor imkoniyatni amalda qo‘llashni taklif etadilar.

Umuman olganda tarixiy ong masalalari dastlab Yevropa fanlarida tadqiq etila boshlandi, zero, u avval aytganimizdek, ushbu masalaga dastlab german olimlari asosiy e‘tiborni qaratgan bo‘lsalarda, so‘ngra boshqa Yevropa mamlakatlarida ham tarixiy ong masalalari asosiy tadqiqot mavzularidan biriga aylandi, alaloqibat jaxon ilm-fanida unga katta qiziqish bilan munosabat bildirildi.

Mamlakatimizda ham tarixiy ong va xotira hamda dunyoqarash borasida bir qator ijtimoiy fanlar doirasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Tarixiy ong tushunchasiga berilgan ta‘riflar orasida o‘zbekistonlik olim N.Jo‘raevning «tarixiy ong – bu jamiyat, ijtimoiy guruxlarning ajralmas qismi bo‘lib, ayni paytda shaxs, insoniyat o‘tmishi haqidagi tasavvurlaridir. Binobarin, tarix o‘tmish, bugungi kun hamda kelajakni butun bir uyg‘unlikda qamrab oladi»[2:215] – deya bergan ta‘rifi alohida ahamiyatga molik.

Tarixiy ong o‘tmishda yuz bergan tarixiy voqealarni tiklashda katta ahamiyatga ega. Bunda tarixiy ong o‘tmishga ongli ravishda murojaat qiladi, undagi voqealarga ijobiy hamda salbiy (yaxshi va yomon) nuqtai nazardan baho berishga intiladi. Faylasuflar bundan tashqari tarixga, ongda aks etayotgan xodisalarga murojaat qila turib, u yoki bu davrda jamiyat rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini, mohiyatini tushunishga intiladilar.

Tarixiy ongda «o‘tmish-bugun-erta»dan iborat ichki ziddiyat mavjud. Ushbu xususiyatni e‘tirof etgan holda A.V.Guliga tarixiy ongga «inson (ijtimoiy guruh, jamiyat) tomonidan o‘z ining zamondagi o‘rni, o‘tmishning bugungi kun va kelajak bilan aloqadorligining o‘zlashtirilishidir. Bu istiqbol uchun muhim bo‘lgan o‘tmishga qaratilganlikdir»[3:16] – deya ta‘rif beradi.

Demak, tarixiy ong alohida olingan shaxs, ijtimoiy guruh va etnoslarning zamondagi o‘rni, o‘tmishi, buguni va kelajagi o‘rtasidagi aloqadorlikni anglashining in‘ikosi hisoblanadi.

Tarixiy ongning mohiyatiga bunday yondashuv tarixiy xotiraning mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi. Ayni paytda, ayrim tadqiqotlarda yo‘l qo‘yilayotganidek, unga yuzaki yondashishdan saqlaydi. Bunga «...tarixiy xotira milliy g‘urur va iftixor hissining zaminlaridan biri»[4:207] yoki «...tarixiy xotira deyilganda jamiyatning moddiy-ma‘naviy hayoti doirasida tadbiiq qilish mumkin bo‘ladigan, shaxsning hayoti va faoliyatini insonparvarlashtirishga imkon beradigan xalq, millatning o‘tmishdagi ijobiy tajribalarining majmui tushuniladi»[5:107], «shaxsni butun insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma‘naviy boylıklar bilan bog‘lab turadigan, uning ongi va kundalik amaliy faoliyatiga ma‘naviy-ruhiy ozuqa beradigan qudrat tarixiy xotiradir»[6:12] – degan fikrlar misol bo‘la oladi.

Qayd etilgan fikrlarda, birinchidan, «tarixiy xotira» va «milliy tarixiy xotira», ikkinchidan, «shaxs tarixiy xotirasi» va «milliy tarixiy xotira» tushunchalarining mazmuni aynanlashtirib yuborilgan. Uchinchidan, «tarixiy xotira» tushunchasining mazmuni sun‘iy tarzda toraytirilgan.

Bunday chalkashliklarni inobatga olmaganda ham, tarixiy xotirani «milliy g‘urur va iftixor hissining zaminlaridan biri», «o‘tmishdagi ijobiy tajribalarning majmui», «ma‘naviy-ruhiy ozuqa beradigan qudrat» deyish bir yoqlamalikdir. Negaki, bunday yondashuvda tarixiy xotira faqat pozitiv mazmunga ega bo‘lib qoladi. Aslida esa, unda salbiy harakterga ega bo‘lgan, g‘ururlanish, ruhiy qudrat manbai bo‘lish uchun zamin bo‘la olmaydigan hodisalar bilan bog‘liq tasavvurlar ham mavjud bo‘ladi.

Tarixiy xotira mohiyatiga bir yoqlama yondashuv boshqa shakllarda ham uchraydi. Xususan, tadqiqotchi Rossiyalik V.B.Ustyanshev tarixiy xotirani «tarixiy yozma manbalarga tayangan holda shakllanishi»[7:5-6] ni ta‘kidlaydi.

Ma‘lumki, tarixiy xotirada yozma manbalar bilan bir qatorda og‘zaki ijod ham muhim o‘rin egallaydi. Tarixiy xotirani faqatgina yozma manbalarga bog‘lagan holda tushuntirish, bizningcha, uning mazmun doirasining torayishiga olib keladi. Chunki, tarixiy xotira sistemalashgan tarixiy bilimlar, o‘tmish haqidagi tasavvurlar kabi ko‘plab axborotlarni qamrab oladi va ularga tayangan holda takomillashib boradi. Tarixiy xotira yangi axborotlarni qayta ishlash oqibatida muttasil rivojlanib boradi va u mohiyatan kelajakka qaratilgan bo‘ladi. Uning shu jihatiga e‘tiborni qaratgan holda, professor D.Alimova «Tarixiy xotira xalq ijtimoiy borlig‘ining rivojlanish istiqbollari, ya‘ni kelajakni o‘zida aks ettiradi. Zero, kelajak – o‘tmish va bugunning muqarrar yakuni, ularning natijasi va davomidir»[8:] – degan fikrni bildiradi.

Mazkur ta‘rifda ham «tarixiy xotira» va «milliy tarixiy xotira»ning mazmuni tenglashtirib qo‘yilgan bo‘lsa-da, o‘tmish, bugun, kelajak o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘g‘ri e‘tirof etilgan. Ayni paytda, tarixiy xotiraga uzluksiz rivojlanish xosligi ta‘kidlangan. Bunday yondashuv «Tarixiy xotira – inson xayolotida o‘rnashib qolgan qat‘iy holat. Boshqacha qilib aytganda, inson fotoapparatga aylanadi-yu, aniq ob‘ekt, holat yoki voqelikni qanday bo‘lsa, shundayligicha suratga oladi. Aniqrog‘i, uning ongida muhrlanib qoladi. Bu sur‘at fikrdan, kayfiyatdan, mantiq

va mazmundan begona. Unda harakat yo‘q»[9:5] – degan qarashlarning o‘rinsizligini ko‘rsatadi.

Tarixiy xotiraga vorisiylik xosdir. Ma‘lumki, ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma‘naviy meros avlodlar tomonidan o‘zlashtiriladi. Uni saqlab, keyingi avlodlarga yetkazish vazifasini bajarishda tarixiy xotiraning roli muhimdir. Shunga ko‘ra, tadqiqotchi J.T.Тоценко «...tarixiy xotira o‘tmish haqidagi axborotni bugungi kun va kelajak bilan bog‘liq holdagi muhim xususiyatini aks ettiradi. U o‘z mohiyatiga ko‘ra xalq, davlat, mamlakatning o‘tmish tajribasining to‘planishi, saqlanishi va qayta tiklanish jarayonining uni kishilar faoliyatida qo‘llash ehtimolini uning ta‘sirini ijtimoiy ong sohasiga qaytarishning aks etishidir» [10] – degan fikrni bildiradi. Mazkur ta‘rifda tarixiy xotiraga xos bo‘lgan xususiyatlar ochib berilgan bo‘lsa-da, unda o‘tmish tajribasining to‘planishi shakllari masalasi e‘tibordan chetda qolgan. Bundan tashqari xotira inson, insonlar guruhiga xos ruhiy holat hisoblanishini inobatga olsak, tarixiy xotiraning sub‘ektlari doirasi sun‘iy tarzda kengaytirilganiga ishonch hosil qilish mumkin. Zero, «mamlakat tarixiy xotirasi» yoki «davlat tarixiy xotirasi» haqida gapirish ma‘nisizdir. Qayd etilgan mulohazalar tarixiy xotirani muttasil rivojlanib boradigan, o‘zida «o‘tmish-bugun-erta» o‘rtasida bog‘liqlikni, ijobiy va salbiy axborotlar majmuini ifodalaydigan hodisa sifatida tushunish imkonini beradi: to‘liqligi konkret vaziyat bilan belgilanadigan, muhim ahamiyat va qimmatga ega bo‘lgan o‘tmish tajribasining muayyan tasavvur, bilim va xulosalar ko‘rinishida esda olib qolinishi, saqlanishi va zarur bo‘lgan holda qayta tiklanishidan iborat bo‘lgan ma‘naviy-ruhiy jarayonga tarixiy xotira deyiladi. Xotiraning mohiyatini bilish, uning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan tarixiy xotiraning va bu o‘z navbatida milliy tarixiy xotiraning mazmunini to‘g‘ri anglashga yordam beradi. Sub‘ektiga ko‘ra farqlanadigan shaxs, ijtimoiy guruh va millat tarixiy xotirasiga xos xususiyatlarni o‘rganish esa, ularning spesifik va o‘xshash jihatlarini hamda o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga yo‘l ochadi.

Milliy tarixiy xotiraning mazmunini anglashda Abdurauf Fitratning fikrlari ham e‘tiborga molik. Jumladan, u «har bir qavm o‘zining bosib o‘tgan ijtimoiy, siyosiy ahvolini bilishi kerak, o‘zini o‘sha o‘tgan tarixiy davri bilan taqqoslab o‘sha davridan qanchalik rivojlanganligini bilishi joizdir. Har bir millat agar yashashni hohlasa, o‘z qavmining o‘tmishi, tarixiga murojaat qiladi va agar biror qavm halokatga mahkum bo‘lgan bo‘lsa, uning sabablarini o‘rganib, bu halokatga bog‘liq bo‘lgan odatlarini tark qilishi kerak. Boshqa bir millatning taraqqiysiga sabab bo‘ladigan qoidalarni o‘ziga qabul qilishi zaruriyatdir»[11:50-51] – deb yozgan edi.

Mazkur mulohazalardan o‘z o‘tmishi, ajdodlari bosib o‘tgan yo‘lni chuqur bilish va o‘zga xalqlar tarixi, ularning yutuq va xatolaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarish har bir millatning taraqqiyotiga sabab bo‘ladigan omillardan biri sifatida talqin qilinganini anglash mumkin.

Bugungi kun ilmiy adabiyotlarida mavjud bo'lgan qarashlarni o'rganish milliy tarixiy xotiraning mazmunini yanada chuqurroq va teranroq anglashga yordam beradi.

Mazkur mulohazalardan o'z o'tmishi, ajdodlari bosib o'tgan yo'lni chuqur bilish va o'zga xalqlar tarixi, ularning yutuq va xatolaridan to'g'ri xulosalar chiqarish har bir millatning taraqqiyotiga sabab bo'ladigan omillardan biri sifatida talqin qilinganini anglash mumkin.

Demak, dunyoqarash, ong va hotira o'rtasidagi munosabat – umumiylik, juz'iylik va xususiylik o'rtasidagi munosabat kabidir. Tarixiy ong hamda tarixiy xotira tarixiy dunyoqarashning muhim tarkibiy komponentlarini tashkil etadi. Ular bir butunlikda yaxlitlashib tarixiy dunyoqarashni hosil qiladi, shuningdek, ong individ, jamoa, elat, millat, xalqlarning o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi haqidagi kundalik idrok va tasavvurlari, bilishning tarixiylik va mantiqiylik tamoyili asosida chiqargan ilmiy-amaliy xulosalarining majmui sifatida gavdalanib, tarixiy dunyoqarashda tizimlashadi va yaxlitlashadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Наврўзова Г., Юнусова Г. Ўзликни англашда хотиранинг роли (Абдуқодир Гийлоний асарларининг фалсафий таҳлили). Chahma Print МЧЖ нашриёти, 2013. –Б.12.
2. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б.215.
3. Гулыга А.В. Историческое сознание.//Современные проблемы философии истории: Тезисы докладов в межвузовской научной конференции. – Тарту, 1989. – С.16.
4. Мустақиллик. Изоҳли илмий-оммабоп луғат. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.207.
5. Курбанмамедов А. Историческая память в духовном совершенствовании личности // Миллий истиқлол ғояси тарғиботининг илмий асослари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. – С.107.
6. Курбонов Т. Ёшлар онгига миллий истиқлол ғоясини сингдиришда маданий мероснинг ўрни. Фалс. фан. номз. дис. автореф. – Қарши, 2005. – Б.12.
7. Устьянцев В.Б. Социальные и гносеологические аспекты становления исторического знания. Автореф. дис. уч. канд.филос. наук. – Саратов, 1982. – С.5-6.
8. Алимова Д., Гуломова Д. Тарихий хотира ва ёшлар./ FIDOKOR. 2001 йил, 18 октябрь.
9. Жўраев Н. Миллий истиқлол ғояси ва тарихни англаш.//Жамият ва бошқарув, 2003, №2. – Б.5.
10. Тощенко Ж.Т., Что такое историческое сознание и историческая память. <http://vivovoco.rse>.
11. Абдурауф Фитрат. Раҳбари нажот. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.50-51.

12. Toxirovich S. R. PHILOSOPHICAL ASPECTS OF SUFI VIEWS ABDURAHMAN JAMI //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – Т. 9. – С. 393-397.
13. Tohirovich S. R., Adirasulovich K. S. Explanation Of Lust And Patience In" Hikmats" Of Khoja Ahmed Yasawi //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 9. – С. 229-233.
14. Ruziev A. J. ИЗУЧЕНИЕ МИРОВОЗЗРЕНИЯ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЫСЛИТЕЛЕЙ КАК ИСТОРИЧЕСКОГО КРИТЕРИЯ //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 11. – С. 166-169.
15. Ruziyev A. ДУНЁҚАРАШДА ТАРИХИЙ ХОТИРА ВА ОНГНИНГ ЎЗARO ДЕАЛЕКТИКАСИ //Научно-просветительский журнал" Наставник". – 2021. – №. 2. – С. 187-193..
16. Рўзиев А. АМИР ТЕМУР ҚАРАШЛАРИДА СИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ГОЯЛАРНИНГ АКС ЭТИШИ //Научно-просветительский журнал" Наставник". – 2020.
17. Ruziyev Anvar. MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TARIXIY MEZONLARI // "FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA".- VOL. 1 NO. 2 (2022), 64-68
18. Qahramonovich H. N. WORTHY DESCENDANTS OF THE SAMARKANDIANS: ENLIGHTENERS JADIDS //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – Т. 13. – С. 37-40.
19. Хаккулов Н. К. САМАРКАНД ЗЕМЛЯ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ ДЖАДИДОВ //Conferencea. – 2022. – С. 48-52.
20. Махмудова М. М. БИЛИМГА ҚИЗИҚИШНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АСОСИДА БОЛА ШАХСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ДЕФИНИЦИЯСИ ВА МАЗМУНИ //Педагогика ва психологияда инновациялар. – 2020. – Т. 10. – №. 3.
21. Махмудова М. ЎЗБЕК ОИЛАСИ ВА УНИНГ ФУНКЦИОНАЛЛИГИ АСОСЛАРИГА ДОИР //Scienceweb academic papers collection. – 2016.